

to'plash bilan erishish mumkin, bu munosabatlar tarmog'ini yaratishni o'z ichiga oladi: ta'lism - fan - amaliyot - ishlab chiqarish. O'zbekistonda poytaxt aglomeratsiyasi negizida muhim ilmiy-texnikaviy va ta'lism salohiyati Toshkent shahrining innovatsion yo'nalishlari, yuqori texnologiyali tarmoqlari va hududlarida jamlangan yirik "Toshkent" ilmiy-ishlab chiqarish klasterini yaratish imkoniyati mavjud (Chirchiq, Ohangaron, Zangiota qishlog'i va boshqalar) - zamonaviy sanoat kooperatsiyasi markazlari. Yangi tarmoqlar bilan kengayib borayotgan sanoat klasteri kuchli kooperatsiya aloqalari mavjud bo'lsa, klaster a'zolari bir vaqtning o'zida ushbu tarmoqda bir-biri bilan raqobatlashsa va hamkorlik qilsa, bir-birini to'dirsa va alohida kompaniyalar va umuman klasterning raqobatdosh ustunliklarini kuchaytirsa, raqobatbardosh bo'ladi.

Klaster usulining afzallikkabi, avvalo, shahar, tuman va viloyat hududida joylashgan bir soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lism, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, shuningdek, boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish — innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish orqali raqobatbardosh tovarlar yaratishda ko'zga tashlanadi.

### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 23.10.2019 yildagi PF-5853-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2016 yil 2 dekabrda PQ-2687 sonli "To'qimachilik va tikuv-trikataj sanoatini rivojlantirishning 2017 yillarga mo'ljallangan chora – tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Paxta to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora tadbirlar to'g'risida"gi 16.11.2021 yildagi PF-14 son
4. A.Marshall,principles of Economics,1890.
5. Murtazo Axmedovich Rahmatovning "Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida" T:" Zamin nashr" 2021,212b

## **JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZ SHAROITIDA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNING STATISTIKTAHLILI (O'RTA OSIYO 2005-2010-YILLARDA)**

**Akbarova Barno Shuxratovna**  
TDIU "Iqtisodiy statistika@ kafedrasi dotsenti,  
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Shamiradova Sabina Byashim qizi**  
TDIU 3-bosqich talabasi


Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz AQShdagi ipoteka banklarining krizis holatidan boshlanib butun dunyoga tarqala boshladi ushbu vaziyatdan O'rta

Osiyo davlatlari xususan O'zbekiston ham chetda qolmadi. Mana shunday qaltis davrda, moliya bozorlari qulashi, banklarning bankrot bo'lishi, kredit narxlarining oshib ketishi global bozordagi sotuv hajmini keskin pasaytirib, dunyo bo'y lab ishsizlar ko'payib ketdi. Mintaqalarning mamlakatlari global iqtisodiyotga ochiq bo'lsada integratsiya hajmi boshqa davlatlarga nisbatan past edi (cheklangan edi). Shunday bo'lishiga qaramasdan, ushbu davlatlar yetarlicha iqtisodiy talafoit ko'rishdi. Qozog'iston asosan neft va gaz bilan bog'liqligi uchun bo'lsa, O'zbekiston va Tojikiston mehnat migratsiyasi orqali yetarli darajada moliyaviy zarar ko'rishdi.

Ushbu tezisda inqirozning 2005-2010-yillardagi mamlakatlarning makroiqtisodiy (YaIM; Inflyatsiya; Ishsizlik; Aholi jon boshiga YaIM) qanday ko'rinishda bo'lganligini statistik tahlil qilinadi. Bundan maqsad, tarixdagi moliyaviy-iqtisodiy tizimdagagi kamchiliklarni bartaraf etish, kelajakda ushbu xatolarni takrorlamaslik va kelgusi davrda shu kabi inqiroz holati sezilsa prognoz qilinib, mamlakatni iqtisodiy muammodan himoya qilish.

**1-jadval**  
**2005-2010-yillarda O'rta Osiyo davlatlarida YaIMning o'sish ko'rsatkichlari.**

Davlat nomi	Davlat kodi	Indikator nomi	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Qozog'iston	KAZ	YaIM o'sishi (%)	9.7	10.7	8.9	3.3	1.2	7.3
Qirg'iziston Respublikasi	KGZ		-0.1755	3.1029	8.54287	8.40162	2.88629	-0.4716
Tojikiston	TJK		6.7	7	7.8	7.9	3.9	6.5
Turkmaniston	TKM		13.034	10.9733	11.0593	14.7	6.1	9.2
O'zbekiston	UZB		6.95001	7.45142	9.47301	9.02916	8.05093	7.59717



**1-grafik. 2005-2010-yillarda O'rta Osiyo davlatlarida YaIMning o'sish ko'rsatkichlari.**

### Inqirozdan avvalgi davr

2005-2007-yillarda O'rta Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston, barqaror iqtisodiy o'sishni ko'rsatdi. Bu davrda dunyo bozorlarida xom-ashyo narxlari, ayniqsa neft-gaz narxlari yuqori bo'lib, ushbu resurslarga bog'liq mamlakatlar masalan Qozog'iston va Turkmaniston yetarli darajada daromad olgan.

### Inqirozdan davri

2008-yilgi global inqiroz bozorlarda yetarli darajada tartibsizliklarni keltirib chiqardi. Neft va gaz narxlari tushib ketadi, resurslarga bog'liq bo'lgan mamlakatlarning jumladan Qozog'istonning YaIM ko'rsatkichi 2008-yilda 3.3% ga tushib ketdi. O'zbekiston uchun inqirozning ta'siri nisbatan kamroq bo'ldi, chunki davlatimiz ichki bozori mustahkam va dunyo bozoriga integratsiyasi nisbatan kamroq edi.

### Inqirozdan keyingi davr


2010-yilga kelib, global iqtisodiyot asta-sekin tiklandi va mintaqaga mamlakatlari ushbu inqirozga qarshi chora-tadbirlar ko'rishni boshladi. O'rta Osiyo davlatlarining YaIMisi asta-sekin o'sishni boshladi: Qozog'istonning YaIM ko'rsatkichi 2010-yilda 7.3%ga oshdi, Turkmanistonning esa 9.2 % ga ko'tarildi.

### 2-jadval

#### Aholi jon boshiga YaIM

Davlat nomi	Davlat kodi	Indikator kodi	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Qozog'iston	KAZ	Aholi jon boshiga YaIM (\$)	3577.36	5030.13	6449.44	8123.55	6938.01	8793.08
Qirg'iston	KGZ		476.548	543.114	721.772	966.389	870.199	876.954
Tojikiston	TJK		333.927	401.018	516.997	703.327	664.796	737.339
Turkmaniston	TKM		1604.02	1996.59	2414.96	3605.5	3707.98	4058.54
O'zbekiston	UZB		542.836	649.118	824.028	1074.73	1205.8	1753.21

Aholi jon boshiga YaIM



### 2-grafik. Aholi jon boshiga YaIM

### Inqirozdan avvalgi davr

Qozog'istonning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi 2005-yilda 3577,36 AQSh dollari bo'lib, 2008-yilgacha doimiy o'sishni ko'rsatdi va 8123,55 AQSh dollariga yetdi. Qиргизистонning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi 2005-yilda 476,548 AQSh dollari bo'lib, 2008-yilgacha o'sishda davom etdi va 966,389 AQSh dollariga, O'zbekistonning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi esa 2005-yilda 542,836 AQSh dollari bo'lib, 2008-yilgacha o'sishda davom etdi va 1074,73 AQSh dollariga yetdi.

Inqirozdan keying davr


Tojikistonning aholi jon boshiga ko'rsatkikichi 2010-yilda esa yana tiklandi va 737,339 AQSh dollariga ko'tarildi. Tojikistonning iqtisodiyoti mehnat migratsiyasiga bog'liq bo'lganligi sababli, global sharoitlarning o'zgarishi unga katta ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonning aholi jon boshiga YaIM ko'rsatkichi 2010-yilda o'sib, 1753,21 AQSh dollarini tashkil etdi.

### 3-jadval

#### Ishsizlik darajasi

Davlat nomi	Davlat kodi	Indikator nomi	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Qozog'iston	KAZ	Ishsizlik drajasi %	8.13	7.79	7.26	6.63	6.55	5.77
Qиргиз Республикаси	KGZ		2.362	2.48	2.577	2.642	2.744	2.887
Tojikiston	TJK		3.375	3.13	2.874	7.134	11.5	11.542
Turkmaniston	TKM		7.485	6.58	5.694	4.835	4	4
O'zbekiston	UZB		7.092	6.03	4.99	4.89	5.04	5.36

#### Ishsizlik darajasi



#### 3-grafik ishsizlik darajasi.

Ushbu jadvalda 2005-2010-yillardagi Ishsizlik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Inqirozdan avvalgi davr

Qиргизистonda ishsizlik darajasi 2005-yilda 2,362% bo'lib, keyingi yillarda asta-sekin o'sishni ko'rsatdi. Tojikistonda ishsizlik darajasi 2005-yilda 3,375% bo'lib, 2007-yilgacha pasayib bordi va 2,874% ni tashkil etdi. O'zbekistonda

ishsizlik darajasi 2005-yilda 7,092% bo'lib, keyingi yillarda asta-sekin pasayib bordi.

Inqiroz davri va undan keyingi muddat

Turkmanistonda ishsizlik ko'rsatkichi 2008-yilda 4,835% ga, 2009-yilda 4% ga, 2010-yilda esa 4% ni tashkil etdi. Qozog'istonda 2008-yilgi global moliyaviy inqirozga qaramay, ishsizlik darajasi 2008-yilda 6,63% ga, 2009-yilda 6,55% ga tushdi. 2010-yilda esa bu ko'rsatkich 5,77% ni tashkil etdi. 2005–2010-yillarda O'rta Osiyo davlatlaridagi ishsizlik darajasi global iqtisodiy sharoitlar, xususan 2008-yilgi moliyaviy inqirozning ta'sirini aniq aks ettirib, Qozog'iston va Turkmaniston kabi resurslarga bog'liq mamlakatlar ishsizlikni kamaytirishga erisha olishdi.

Xulosa sifatida shuni yozish mumkinki, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz butun dunyo iqtisodiyotiga, shu jumladan O'rta Osiyo mamlakatlariga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrda O'rta Osiyo mintaqasi (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston) makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar bilan yuzaga keldi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz mintaqa mamlakatlarga boshqa davlatlarga nisbatan sezilarli ta'sir ko'rsatmagan bo'lsada O'rta Osiyo davlatlari xususan Qozog'iston yetarli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Yana shuni aytish mumkinki, tarixdagi iqtisodiy tizimdagi xatolardan saboq olib, ularni takrorlamaslik va bartaraf etish, turli isloohotlarni amala oshirish lozim, misol uchun O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy tizimini modernizatsiyalash, moliyaviy mustahkam va barqaror mamlakatga aylanish kerak. Rivojlangan davlatlardan o'rnak olgan holda, yangiliklarga innovatsiya qilish, qo'shimcha ish o'rinalarini yaratish, aholining bandligini ta'minlagan holda YaIMning aholi jon boshiga hajmini oshirish va albatta yetuk mutaxassislarni tarbiyalash.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti O'zbekiston  
<https://uzbekistan.un.org/uz>
2. Birlashgan Millat Tashkiloti <https://www.un.org/en/>
3. <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/gdp> iqtisodiy sayti

## BARQAROR MOLIYALASHTIRISHDA ESG TAMOYILLARINING AHAMIYATI

**Abdulazizov Shuhratjon Botirjon o'g'li**  
Toshkent davlat iqtisodiyot univeristeti  
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasи o'qituvchisi

Barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, ijtimoiy tengsizlik va korporativ boshqaruvdagи shaffoflik masalalari investorlar, davlat tashkilotlari va biznes subyektlarini ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini faol